

**O'ZBEKISTON FANLAR AKADEMIYASI SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
QO'LYOZMALAR FONDIDAGI "AL-KOFIA FI-N-NAHV" ASARI VA UNGA
YOZILGAN SHARHLARNING NUSXALARI**

Abduvaliyeva Komila

Qo'lyozmalar turli sohalarga oid bo'lib, O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalari ichida arab tili grammatikasiga oid manbalar ham talaygina. Masalan:

Jarulloh Abulqosim Mahmud ibn Umar az-Zamaxshariy qalamiga mansub "Muqaddamat-ul adab", "Mufasssal fi-n-nahv" asarlari, Abdurahmon ibn Ahmad al-Jomiyning "Favoidu-z-ziyoia" asari, Usmon ibn Umar ibn Hojib qalamiga mansub "Kofiya fi-n-nahv", "Shofiya fi-s-sarf" asrlari, "Favoidu-z-ziyoia" asariga turli mualliflar tomonidan yozilgan hoshiyalar, "Kofiya fi-n-nahv" asariga turli mualliflar tomonidan yozilgan sharhlar, Zanjoni qalamiga mansub "Sarfi Zanjoni" asari, Abulqohir al-Jurjoniyning "Avomil" asari shular jumlasidandir.

Arab tili grammatikasini o'rganishda nahv va sarf ilmlarini mukammal o'rganish muhim o'rin tutadi. Yuqoridagi manbalar bu ilmlarni o'rganishda muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa nahv faniga oid "Kofiya" asari va unga yozilgan sharhlar bu manbalar ichida alohida o'rin tutadi. Bu asar arab tili bilan shug'ullanuvchi tilshunoslar orasida juda mashhur bo'lib, ilohiy nahv kitobi deb ham ataladi. Bu asar Qur'oni karim oyatlari asosida tuzilgan bo'lib, har bir grammatik tushunchalarning ta'riflari Qur'on asosida yozilgan. Qadimgi mufasssirlar ushbu kitobni o'rganmay turib, tafsir ilmiga qo'l urmaganlar. Bu asar arab grammatikasining nahv qismiga bag'ishlangan bo'lib, grammatikaning eng kichuk va nozik jihatlarigacha mufasssal yoritilgan. Quyida O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik insitituti qo'lyozmalar fondidagi "Kofiya" asari va unda yozilgan sharhlarning nusxalari haqida ma'lumotlar beriladi.

"Kofiya" asarining qo'lyozmalar institutidagi qisqa tavsifi yaratilgan manbalar ichida 94 nusxasi mavjud. Bu lardan yetmush uchtasi majmua shaklida, qolganlari esa yakka tartibdagi asarlardir. Bu nusxalarning aksarida yozilgan yili, joyi, kotiblari, ko'chirilgan joyi va yillari haqida ma'lumotlar yo'q. Yozilgan yili haqida ma'lumotlar mavjud bo'lgan nusxalarda ham ikki xil fikr bor. Ayrim nusxalarda 626 hijriy yilda yozilgani haqida ma'lumot bo'lsa, boshqalarida esa 646 hijriy yilda yozilgan degan ma'lumotlar bor. Manbalar ichida eng qadimiysi 8569 raqamli nusxa bo'lib, 1062 hijriy yilda kotib Muhammad Sodiq tomonidan ko'chirilgan. Eng yangisi esa 10326 va 10650/III raqamli nusxalar bo'lib, 1903 va 1895 milodiy yillarda ko'chirilgan. Qolganlari esa XIII, XIV, XVIII asrlarga oiddir. Eng to'liq nusxalari 9507 raqamli nusxa 115 varaq, 9511/II raqamlisi esa 102 varaqdan iboratdir. Eng qisqa va noto'liq nusxasi 6547/XXV raqamli nusxa bo'lib, 11 varaqdan iborat. Manbalarning 97% nasta'liq yozuvida, qolganlari esa nasx yozuvida yozilgan. Manbalarning ayrimlari nuqsonli bo'lib, avvalidan yoki oxiridan tushib qolgan holatlari ham uchraydi. 10014/I, 8951/VI raqamli nusxalar shular jumlasidandir. "Kofiya"



asarining nusxalari ichida lavha va rasmlilari ham mavjud bo'lib, 3554, 2979/XVI, 5601/XXVIII raqamlilarida lavhalar bor.

“Kofiya” asariga turli mualliflar tomonidan sharhlar yozilgan bo'lib, bu sharhlar ichida Abdurahmon ibn Ahmad al-Jomiyning “Favoid uz-ziyoiya” asari muhim ahamiyatga ega. Bu asar “Kofiya”ning sharhi bo'lganligi uchun “Sharhi mullo Jomiy” deb ham nomlanadi. “Favoid uz-ziyoiya”ning O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik insitituti qo'lyozmalar fondida sakson to'rt nusxasi saqlanmoqda. Asarning yozilish yili ayrim nusxalarda hijriy 896, 897, yana ayrimlarida esa 898, 899 yillar deb ko'rsatilgan. Aksar qismida esa yozilgan yili haqida ma'lumotlar yo'q. Ko'chirilgan yiliga ko'ra eng qadimiy nusxasi 6124 raqamli nusxa bo'lib, 945 hijriy yilda nasx xatida ko'chirilgan. har ikki varag'i orasiga qog'oz qo'yilgan. Eng yangisi esa 11942 raqamli nusxa bo'lib, 1865 milodiy yilda nasta'liq xatida ko'chirilgan. Qolgan nusxalaru esa turli davrlarga, ya'ni XII, XIV, XVII, XIX asrlarga oid. “Favoid uz-ziyoiya” qo'lyozma nusxalarining aksari nasta'liq yozuvida yozilgan bo'lib, nasx yozuvida yozilganlari ham uchraydi. 4871 raqamli nusxa esa 965 yil Ali ibn Ilyos tomonidan suls yozuvida ko'chirilgan. Asarning eng hajmi katta nusxasi 5118 raqamli nusxa bo'lib, 552 varaqdan iborat, nasta'liq xatida yozilgan. Lavhalari ham bor. Ayrim nusxalari nuqsonli bo'lib, 10560 raqamli nusxaning boshidan, 572/VII, 11859, 8549 raqamli nusxalarning oxiridan varaqlar tushib qolgan. Alohida sifatlarga ega nusxalari ham bor bo'lib, 5887 raqamli nusxa 1234 yili nasta'liq xatida ko'chirilgan, 283 varaqdan iborat va Ibn Arabshohning hoshiyalari berilgan. Hoshiyasida yetti bayt lavha bor. 5139 raqamli nusxaning ham hoshiyalari bor bo'lib har bir mabhasda lavhalar berilgan. 3540 raqamli nusxada esa sarlavhalar ajratilgan. 3210 raqamli nusxa esa mavlono Soqiy qalami bilan yozilgan. 9136 raqamli nusxa esa xushxat va san'atlidir. Boshqa ko'pgina nusxalarida ham lavhalar va hoshiyalar uchraydi.



“Favoid uz-ziyoiya” asari sharh bo'lgani uchun ham uni sharhlash maqsadida ko'p mualliflar tomonidan hoshiyalar yozilgan. Hoshiyalar soni ham anchagina bo'lib, bir yuz o'n nusxadan oshadi. Ular turli muallif va davrlarga oiddir. “Favoid uz-ziyoiya”ga yozilgan hoshiyalar ichida Abdulg'ofur al- Loriyning hoshiyasi diqqatga sazovardir. Uning o'ttizga yaqin nusxasi fondida saqlanmoqda. Ulardan to'rttasi majmua ichida, qolganlari esa yakka asarlardir. Asar IX, X asrlarda yozilgan bo'lib, saqlanib qolgan nusxalarining aksar qismi XVII, XIX asrlarda turli kotiblar tomonidan ko'chirilgan. 11824 raqamli nusxa 1859 yili Mir Yusuf mufti Shoshiy tomonidan nasta'liq xatida ko'chirilgan. Nusxalar ichida eng hajmlisi 10777 raqamli nusxa bo'lib, 228 varaqdan iborat. 9008 raqamli nusxa esa xushxat bo'lib, lavhalari ham bor.

Yuqorida ma'lumotlar berilgan asarlar ko'p nusxali asarlar hisoblanib, ilmiy tadqiqotchi ulardan eng ishonchli matnni yaratishi uchun nusxalarning barchasini tadqiq nazaridan o'tkazishi va xillashi lozim.²⁸ Bu turdagi ajdodlarimiz meroslarini, xossatan arab tili grammatikasiga oid manbalarni to'liq o'rganish va nashr qilish qo'lyozmalar fondlarida saqlanayotgan turli sohalarga oid manbalarni o'rganish va turli fan sohalarini ma'lumotlar

²⁸ A.habibullayev. Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik. T:2000, 127-b.



bilan boyitishda juda muhimdir. Chunki fondlarda saqlanayotgan manbalarning aksari arab tilidadir.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. M.Hasaniy, A.Habibullayev. Adabiy manbashunoslik va matnshunoslikning nazariy masalalari. T.: 2011 yil.
2. A.Habibullayev. Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik. T.: 2000 yil.
3. www.arabic.uz